Inson huquq va erkinliklari-bugunning dolzarb masalasi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq institutida O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari Milliy markazi huzuridagi Ilmiy muvofiqlashtirish kengashi va Davlat va huquq instituti huzuridagi O‘zbekiston Respublikasida yuridik fanlarni rivojlantirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash hamkorlikdagi “Inson huquq va erkinliklari masalasidagi amaliy va fundametal ilmiy tadqiqotlarni faollashtirishda ilmiy muvofiqlashtirish kengashlarining o‘rnini kuchaytirish” mavzusida davra suhbati bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari Milliy markazi direktori, FA akademigi A.Saidov, Davlat va huquq instituti direktori M.T. Turgunov, direktor o‘rinbosari A.To‘laganov, ilmiy xodimlar R.Xakimov, R.Nazarov, J.Nematov, Ya.Kvitkov va boshqalar savol-mulohazalar bilan ishtirok etdi.

Tadbirning asosiy ma’ruzachisi sifatida Rossiya TIV Moskva xalqaro munosabatlar davlat instituti (universiteti) professori, y.f.d. Mark Lvovich Entin “Inson huquqlari bo‘yicha Yevroosiyo konvensiyasini imzolash qarshi va tarafdorlar” mavzusida ma’ruza qildi.

M.L.Entinning ma’ruzasi yig‘ilganlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Tadbir qo‘shma shaklda bo‘lgani sababli onlayn chiqishlar bilan viloyatlardan ham vakillar, jumladan, Qoraqalpog‘iston, Termiz, Samarqand, Namangan davlat universitetlari yuridik fakultet dekanlari va boshqalar ham qatnashdi. Davra suhbati davomida inson huquqlari himoyasi borasida bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar muhokama qilindi.